

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

XOLMATOV BOBIR TASHPO‘LATOVICH

**KUCHSIZ SHO‘RLANGAN O‘TLOQI-BO‘Z TUPROQLARINING
AGROFIZIKAVIY XOSSALARINI QO‘LLANILGAN
AGROTEXNOLOGIYALAR TA‘SIRIDA O‘ZGARISHI
(Jizzax viloyati Paxtakor tumani misolida)**

06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Xolmatov Bobir Tashpo‘latovich

“Kuchsiz sho‘rlangan o‘tloqi-bo‘z tuproqlarining agrofizikaviy xossalarini qo‘llanilgan agrotexnologiyalar ta‘sirida o‘zgarishi” (Jizzax viloyati Paxtakor tumani misolida)

3

Холматов Бобир Ташпулатович

“Изменение агрофизических свойств слабозасоленных серозёмно-луговых почв под влиянием применяемых агротехнологий” (на примере Пахтакорского района Джизакской области)

21

Kholmatov Bobir Tashpolatovich

“Changes in the agrophysical properties of slightly saline gray-meadow soils under the influence of applied agricultural technologies” (on the example of Pakhtakor district of Jizzakh region)

41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

XOLMATOV BOBIR TASHPO‘LATOVICH

**KUCHSIZ SHO‘RLANGAN O‘TLOQI-BO‘Z TUPROQLARINING
AGROFIZIKAVIY XOSSALARINI QO‘LLANILGAN
AGROTEXNOLOGIYALAR TA‘SIRIDA O‘ZGARISHI
(Jizzax viloyati Paxtakor tumani misolida)**

06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Qx1096 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (<http://www.ziyonet.uz>) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Shadiyeva Nilufar Iskandarovna,**
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponenlar: **Raxmontoy Kurvantoyev**
qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor
Musurmanov Alisher Amirqulovich
qishloq xo‘jalik fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Etakchi tashkilot: **Samarqand Davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 raqamli Ilmiy kengashning «_____» _____ 2024 yil soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel: (99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail:tuag-info@edu.uz. Toshkent davlat agrar universiteti (ma‘muriy binosi, 1 qavat, kichik anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№552082 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

N.B.Raupova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor

G.S.Sodiqova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, b.f.n., dotsent

M.E.Saidova
Kengash qoshidagi ilmiy seminar raysi,
b.f.d., dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo bo'yicha 833 million gektardan ortiq sho'rlangan tuproqlar mavjud bo'lib, bu yer yuzining 8,7 foizini tashkil etadi. Tuproq degradatsiyasi tufayli 1,5 milliarddan ortiq odam oziq-ovqat yetishtirishda katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda¹. FAO ning yer va suv resurslari bo'yicha mutaxassisi Natalya Rodrigues Eugenio sho'rlangan tuproqlarni ilmiy asosda to'g'ri boshqarish orqali barqaror ekotizimlar yaratish va oziqa moddalarga boy, sho'rga chidamli ekinlarni yetishtirish mumkinligini ta'kidlaydi². Qishloq xo'jaligidagi noto'g'ri amaliyotlar, jumladan, ortiqcha ishlov berish, organik moddalarning yo'qolishi, sifatsiz suv bilan sug'orish va gerbitsid hamda pestitsidlarning ortiqcha qo'llanilishi tuproqdagi oziqa moddalarning tez yo'qolishiga va degradatsiyaga olib keladi, bu esa tuproq sifatining pasayishi va undagi organik modda miqdorining kamayishiga sabab bo'ladi. Shu bois, inson faoliyatining tuproqqa salbiy ta'sirini kamaytirish, biologik, kimyoviy va fizik jarayonlarni hisobga olib, tuproqning bioekologik va meliorativ sifatlarini yaxshilash muhim ahamiyatga ega.

Dunyoda tuproqlarni degradatsiyaga uchrashi va bu jarayonlarning dunyo qishloq xo'jaligiga yetkazadigan zararini kamaytirish, oldini olish, bartaraf etish va baholash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda dunyoda global darajada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni 70 foizga oshirish zarurati mavjud bo'lib, bu tuproq degradatsiyasi, sho'rlanish, eroziya va gumus miqdorining kamayishi kabi ekologik muammolarni hal qilishni talab etadi. Shu sababli, tuproqdagi organik moddalar miqdorini nazorat qilish, kimyoviy va agrofizikaviy xususiyatlarni boshqarish, tuproqlarda kechayotgan degradatsiya jarayonlarini bartaraf etish, tuproqlarning ekomeliorativ holatini yaxshilash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yurtimizdagi sug'oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish va samaradorligini saqlash maqsadida qator ekologik-meliorativ chora-tadbirlar amalga oshirilib, davlat dasturlari doirasida ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazilmoqda va muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi O'RQ-903-son "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida"³gi Qonunida qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilashda va ulardan samaralari foydalanishda zamonaviy usullar va texnologiyalarni qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan, shu bilan birga, agrar sektor yerlarining maksimal ishlab chiqarish salohiyatiga erishish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini kengaytirish, tuproq unumdorligini qayta tiklash, ilg'or agrosanoat tizimlarini va ekinlarni yetishtirishning yuqori darajadagi hamda resursni tejavchi agrotexnologiyalarini amaliyotga joriy etish orqali yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini tezlashtirish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ <https://www.fao.org/global-soil-partnership/resources/highlights/detail/ru/c/1446044/>

² <https://www.fao.org/fao-stories/article/ru/c/1458222/>

³ <https://www.lex.uz/pdfs/6787881>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni, 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-son «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022-yil 25-martdagi PQ-179-son «Paxta maydonlarida tuproq unumdorligini va hosildorlikni oshirish, sug‘orishning yangi texnologiyalarini joriy etishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlarida hamda mazkur faoliyatga aloqador boshqa ayrim me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhitni muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda sug‘oriladigan yerlarining meliorativ holatini yaxshilash, sho‘rlangan tuproqlarni sho‘rsizlantirish, unumdorligini tiklash va oshirish, tuproqning agrofizikaviy xossalariga va gumusli holatiga resurstejovchi agrotadbirlarning ta‘sirini o‘rganish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini bir qator olimlar I.Turapov, Sh.T.Xoliqulov, G.A.Bezborodov, B.I.Niyazaliyev, K.M.Ochilov, O.Maxmudov, R.Qurvontoyev, A.S.Shamsiyev, A.Sanaqulov, L.Mirzayev, O.Egamberdiyev, O.Po‘latov, Sh.Axmirezayev, A.Nurbekov, A.Musurmonov, F.Yu.Geltser, P.N.Kostichev, N.P.Remezov, A.N.Rozanov, P.N.Besedin va shogirdlari, M.A.Belousov, S.N.Rijov, M.M.Tashkuziyev, E.A.Ziyamuxamedov, D.A.Maxmudova va boshqalar tomonidan olib borilgan. Lekin kuchsiz sho‘rlangan tuproqlarning agrofizikaviy xossalarini yaxshilash va unumdorligini tiklashga resurstejovchi agrotadbirlar qo‘llanilishi hamda tuproq agregatlari gumusning tarkibi bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti (PSUEAITI) Jizzax ilmiy tajriba stansiyasi tadqiqot ishlar rejasining QX-A-QX-2018-216 “Jizzax viloyatining turli darajada sho‘rlangan tuproqlari sharoitida g‘o‘za majmuidagi ekinlarni parvarishlash texnologiyasi elementlarini takomillashtirish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kuchsiz sho‘rlangan o‘tloqi-bo‘z tuproqlarning agrofizikaviy xossalarini resurstejovchi agrotexnologiyalar ta‘sirida o‘zgarishini aniqlash, tuproqlarning agrofizikaviy xossalarini yaxshilash va unumdorligini tiklashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

-resurstejamkor agrotexnologiyalar - mineral o‘g‘itlaridan samarali foydalanish orqali ekinlarga qo‘llash me‘yorini 45-50 foizga kamaytirish, ekinlar qator oralariga ishlov berish sonini kamaytirish, suv resurslarini tejab sarflash, va energiyani tejaydigan texnologiyani tuman sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z

tuproqlarning agrofizikaviy, kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalariga, namlik va shoʻrlanish darajasiga taʼsirini aniqlash;

- tuproq strukturasi shakllanishida dukkakli va ildiz mevali ekinlarning taʼsirini aniqlash;

- oʻtloqi-boʻz tuproqlarining struktura boʻlaklaridagi gumusning guruhii va fraksiyaviy tarkibini aniqlash;

- dukkakli va ildiz mevali ekinlar ostidagi tuproqlarda gumusning shakllanishi va agronomik qimmatli agregatlarning unumdorlikka taʼsirini aniqlash;

- oʻtmishdosh ekinlardan keyin ekilgan gʻoʻzaning oʻsishi, rivojlanishi va hosildorligiga taʼsirini aniqlash;

- oʻtmishdosh ekinlarni paxta hosildorligiga taʼsirini va iqtisodiy samaradorligini aniqlash ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida kuchsiz shoʻrlangan sugʻoriladigan oʻtloqi-boʻz tuproq, soya, loviya, qand lavlagi, gʻoʻza ekini tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Jizzax viloyati kuchsiz shoʻrlangan oʻtloqi-boʻz tuproqlarning agrofizik, suv-fizik, agrokimyoviy xossalari va granulometrik tarkibi, meliorativ holati hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitida agrotuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart uslublarda amalga oshirildi, dala tajribalarini qoʻyish, amalga oshirish, fenologik kuzatishlar, biometrik oʻlchashlar va boshqa tahlillar “Dala tajribalarini oʻtkazish uslublari” (2007), “Методика полевого опыта” (1985), tuproq va oʻsimliklarni tahlillari “Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах” (1963), “Методика агрохимических исследований” (1989) uslublari asosida hamda olingan maʼlumotlarning matematik-statistik tahlili “Microsoft Excel” kompyuter dasturi yordamida B.A.Dospexov qoʻllanmasi boʻyicha amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Kuchsiz shoʻrlangan sugʻoriladigan oʻtloqi-boʻz tuproqlarida, qator oralarini polietilen plyonka bilan mulchalash va gʻoʻza almashlab ekish tizimiga qand lavlagi, soya hamda loviya kabi ekinlarni kiritishning tuproqning kimyoviy va agrofizik xossalariga, namlik va shoʻrlanish darajasiga koʻrsatgan taʼsiriga oid yangi maʼlumotlar olinganligi va ushbu tuproqlardan samarali foydalanish tadbirlarini ishlab chiqish bilan izohlangan;

Kuchsiz shoʻrlangan tuproqlarning strukturasi shakllanishida gumus moddasining guruhii va fraksiyaviy tarkibini ishtirok etish xususiyatlari aniqlangan;

Tuproq strukturasi shakllanishida organik uglerodning faol qismi miqdorini koʻpayishi bilan qimmatli agregatlarning ortganligi aniqlangan;

Tuproqlarni yuzasini polietilen plyonka bilan mulchalash taʼsirida oʻtloqi-boʻz tuproqlarining agrofizikaviy, suv-fizik va kimyoviy xossalari oʻzgarishi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Jizzax viloyati kuchsiz shoʻrlangan oʻtloqi-boʻz tuproqlarining barcha

xossa-xususiyatlarini aniqlash jarayonida olingan ma'lumotlar va agrotexnologiyalar natijalari asosida tuproq unumdorligini saqlash va tiklash uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mazkur tuproqlar unumdorligini oshirish uchun qo'llanilgan resurstejamkor agrotexnologiyalar yordamida o'tmishdosh ekindan keyin ekilgan g'ozadan qo'shimcha 5-6 sentner hosil olingan;

tuproqning granulometrik tarkibi, sho'rlanish darajasini hisobga olgan holda, qand lavlagi, soya va loviya ekinlarini parvarishlash uchun ilmiy asoslangan agrotexnologiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularning umum qabul qilingan uslublar asosida o'tkazilganligi, nazariy va natijalarining bir-biriga mosligi, olingan ilmiy ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berish hamda ilmiy-amaliy ishlar yakuniy natijalarning mos kelishi; tadqiqotlarda to'plangan ma'lumotlar mahalliy va xorijiy tajribalar bilan taqqoslanganligi; tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, natijalarni amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'rganilgan hududda kechayotgan sho'rlanish jarayonlarini rivojlanishini bartaraf etish, tuproqlarni agrofizikaviy, agrokimyoviy xossalari va meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy asoslangan resurstejamkor agrotexnologiyalarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tuproq unumdorligini saqlash va oshirishda resurstejamkor agrotexnologiyalar asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek, ushbu texnologiya sug'orish ishlarini to'g'ri tashkil etish va tuproqning takroriy sho'rlanishini oldini olishga xizmat qiladi. Olingan ma'lumotlar tuproq namligini maqbullashtirish, tuzlar miqdorini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Jizzax viloyati, Paxtakor tumani "Kuchsiz sho'rlangan o'tloqi-bo'z tuproqlarning agrofizikaviy xossalari qo'llanilgan agrotexnologiyalar ta'sirida o'zgarishi" bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

"Jizzax viloyatining turli darajada sho'rlangan tuproqlari sharoitida qand lavlagi, soya va loviya ekinlarini parvarishlash agrotexnologiyasi" bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 10-noyabrdagi 04/29-06/1328-son ma'lumotnomasi). Natijada, sho'rlangan tuproqlarning xossa va xususiyatlarini yaxshilash, ushbu tuproqlardan oqilona va samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda qo'llanma bo'lib xizmat qilgan;

turli darajada sho'rlangan ball boniteti past bo'lgan yerlarda g'ozajam majmuidagi ekinlardan qand lavlagi, soya va loviyalarning o'sishi va rivojlanishi uchun eng qulay sharoit kuchsiz sho'rlangan yerlarda 2500-3000 m³/ga me'yorida sho'r yuvish, tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash va tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan agrotexnologiyalar joriy qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 10-noyabrdagi 04/29-06/1328-son

ma'lumotnomasi) Natijada, kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda mulchalab yetishtirilgan qand lavlagi, soya va loviya an'anaviy usulga nisbatan 142,8 s/ga (rentabellik 45,7%), soya 5,2 s/ga (rentabellik 40,3%) va loviya 6,1 s/ga (rentabellik 41,4%) qo'shimcha hosil olingan. Sho'rlangan tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilangan, unumdorligi oshgan hamda keyingi ekilgan g'o'zadan 5-6 s/ga qo'shimcha hosil olishga erishilgan.

ekinlarni qator oralarini polietilin plyonka bilan mulchalab ekish bo'yicha resurstejamkor agrotexnologiyalar joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 10-noyabrdagi 04/29-06/1328-son ma'lumotnomasi). Natijada, ekinlar qator oralari polietilen plyonka bilan mulchalanib parvarishlangan variantlarda tuproqning 0-5 va 0-10 sm qatlamlarida uning o'rtacha sutkalik harorati an'anaviy usulda parvarishlangan variantlarga nisbatan 2,5-2,7°C ga yuqori bo'lgan, tuproqning gumusli holati, agrofizik xususiyatlari yaxshilangan va sho'rlanish jarayonlari kamaygan. Shu jumladan, qishloq xo'jalik yerlaridan samarali foydalanish va tuproqlarga agrotadbirlarni belgilashda ilmiy-amaliy asos sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, shu jumladan 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalari chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola bo'lib, shulardan 5 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnallarda va 1 ta tavsiya nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117-betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda predmet va obyektlari tavsiflangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Adabiyotlar sharhi**" deb nomlangan birinchi bobi ikki banddan iborat bo'lib, 1.1-bandida "**Sug'oriladigan tuproqlarning agrofizik holati, organik moddalar miqdori va ekinlar hosilini o'zgarishiga qo'llanilgan resurstejamkor agrotexnologiyalar ta'sirini o'rganilganligi**"ga oid manbalar tahlili va 1.2-bandida "**Sho'rlagan tuproqlar sharoitida ekinlarni yetishtirishning tuproqning xossalari va undan keyin ekilgan ekinlar hosilini o'zgarishiga ta'sirini o'rganilganligi**"ga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar sharhi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Tadqiqot o‘tkazilgan hududning tuproq-iqlim sharoitlari, obyekti va uslublari**” deb nomlanib unda tadqiqot obyektining geografik o‘rni va iqlim sharoitlari, gidrogeologik va geomorfologik sharoitlari, dala tajriba maydoni tuproqlarining tavsifi, tajriba tizimi va uslublari, tajriba dalasida bajarilgan agrotexnik tadbirlar, hudud tuproqlarining morfologik xossalari, granulometrik tarkibi, tajriba maydoni tuproqlarining dastlabki agrokimyoviy xossalariga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Tadqiq etilgan tuproqlarning asosiy fizik, agrofizik, ayrim kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalari tahlili**” deb nomlanib unda tadqiqot hududi tuproqlarining, fizikaviy, agrofizikaviy, kimyoviy, fizik kimyoviy va agrokimyoviy xossalari, umumiy fizik va suv-fizik xossalari, hudud tuproqlarining agrofizikaviy xossalari asosida ularning agrofizikaviy xossalari va unumdorligini resurstejovchi agrotexnologiyalar orqali yaxshilash bo‘yicha tadqiqotlar natijalari yoritib berilgan.

“**O‘tloqi-bo‘z tuproqlarning umumiy fizik xossalari**” deb nomlangan paragrafida tajriba o‘tkaziladigan o‘tloqi-bo‘z tuproqlarning zichligi haydalma qatlamda 1,35 g/sm³ dan 1,39 g/sm³ gacha oraliqda ekanligi aniqlangan. Haydov osti qatlamiga o‘tish bilan 1,40 g/sm³ dan 1,42 g/sm³ gacha zichlashgan. Ushbu tuproqlarning hajm og‘irlik qiymatini baholash ko‘rsatkichiga ko‘ra- “yaxshi” deb baholangan (1-jadval).

1-jadval

O‘tloqi-bo‘z tuproqlarning umumiy fizik xossalari


Kesma (№)	Qatlam (sm)	Zichlik (g/sm ³)	SO (g/sm ³)	UG ^o (%)	Kesma (№)	Qatlam (sm)	HO (g/sm ³)	SO (g/sm ³)	UG ^o (%)
1	0-30	1,38	2,61	47,1	4	0-29	1,35	2,62	48,4
	30-63	1,42	2,65	46,4		29-66	1,39	2,65	47,5
	63-90	1,42	2,68	47,0		66-96	1,40	2,69	47,9
	90-110	1,43	2,69	46,8		96-120	1,50	2,71	44,6
2	0-28	1,36	2,57	47,0	5	0-30	1,37	2,62	47,7
	28-60	1,41	2,6	45,7		30-50	1,41	2,65	46,7
	60-80	1,42	2,65	46,4		50-80	1,4	2,67	47,5
	80-100	1,44	2,69	46,4		80-115	1,42	2,69	47,2
3	0-30	1,35	2,58	48,4	6	0-32	1,39	2,6	46,5
	30-53	1,42	2,6	45,3		32-64	1,40	2,65	47,1
	53-78	1,42	2,64	46,2		64-90	1,41	2,67	47,1
	78-120	1,43	2,67	46,4		90-120	1,43	2,69	46,8

Tajriba o‘tkazilgan o‘tloqi-bo‘z tuproqning solishtirma og‘irlihi haydalma qatlamda 2,57 g/sm³ dan 2,62 g/sm³ gacha oraliqda. Haydov osti qatlamga o‘tish bilan 2,62 g/sm³ dan 2,65 g/sm³ gacha ekanligi aniqlangan. Undan pastki qatlamga o‘tish bilan solishtirma og‘irlik ortib borgan eng pastki qatlamlarda 2,67 g/sm³ dan 2,71 g/sm³ gacha kuzatilgan. G‘ovaklik 47,7% dan 46,5%gacha oraliqdali aniqlangan.

“**Tajriba hududi tuproqlarining suv o‘tkazuvchanligi**” deb nomlangan paragrafida tajriba dalasida tuproqning suv o‘tkazuvchanligi o‘rganilgan. Birinchi soatda suv o‘tkazuvchanlik 505 m³/ga, keyingi soatlarda bu ko‘rsatkich pasayib borib, oltinchi soatda 55 m³/ga ga yetdi. O‘suv davridagi sug‘orishlar va qator

oralig'ida ishlatilgan texnikalar tuproqning zichlashuviga sabab bo'lib, kuzda suv o'tkazuvchanlik kamaygan. An'anaviy usulda parvarishlangan variantlarda kuzda suv o'tkazuvchanligi 1035-1145 m³/ga bo'lgan, qator oralari plyonka bilan mulchalanib parvarishlangan variantlarda esa 1150-1365 m³/ga ga teng bo'lgani qayd etilgan (1-rasm).

O'suv davrining yakuniga kelib, tuproqning suv o'tkazuvchanligi birinchi soatda an'anaviy usulda parvarish qilingan variantlarda 345-385 m³/ga ni tashkil etgan, plyonka bilan mulchalanib qator oralari parvarish qilingan variantlarda esa 350-405 m³/ga ni tashkil etgan.




1-rasm. Tuproqning suv o'tkazuvchanligi, m³/ga

Bahorda olib borilgan kuzatuv natijalariga nisbatan, vegetatsiya davrining oxiriga kelib tuproqning 0-50 sm qatlamida namlik miqdori 12,6 % dan 10,8 % ga, 0-100 sm qatlamida 16,2 % dan 14,2 % ga, 0-150 sm qatlamida 19,5 % dan 17,7 % ga va 0-200 sm qatlamida 21,7 % dan 19,8 % ga kamayganligi kuzatilgan.

“Sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlarining ayrim kimyoviy xossalari” deb nomlangan paragrafida, tajriba o'tkazilgan hududning o'tloqi-bo'z tuproqlaridan olingan namunalarda gumus miqdori haydalma qatlamda 0,870% dan 0,654% gacha, haydov osti qatlama o'tish bilan esa 0,780% dan 0,316% gacha kamayishi aniqlangan. Eng pastki qatlamlarda esa gumus miqdori 0,573% dan 0,274% oralig'ida kuzatilgan. Bu ko'rsatkichlar o'tloqi-bo'z tuproqlarning haydalma qatlamlarida gumus bilan kam ta'minlanganligini (0,870% - 0,654%) tasdiqlaydi (2-rasm).

Tajriba hududining tuproqlarida azot bilan ta'minlanganlik darajasi bo'yicha haydalma qatlamda azot miqdori 0,066% dan 0,046% gacha, harakatchan azot esa 24,9 mg/kg dan 8,5 mg/kg gacha aniqlangan. Haydov osti qatlamga o'tish bilan azot miqdori 0,056% dan 0,021% gacha, mineral azot miqdori esa 27,7 mg/kg dan 10 mg/kg gacha ko'proq ekanligi ma'lum bo'lgan.

Sug'oriladigan tuproqlarning mineral azot bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi (50,1-60,0 mg/kg -yuqori, 30,1-50,0 mg/kg-o'rtacha, 20,1-30,0 mg/kg- past, 20 mg/kg dan kam-juda past) bilan solishtirganda tajriba o'tkaziladigan o'tloqi-bo'z tuproqlarning harakatchan shakldagi azot bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi juda past ta'minlangan deb baholangan.



2-rasm. Tajriba maydoni tuproqlarining ayrim kimyoviy xossalari

Hudud tuproqlarining haydalma qatlamida fosfor 0,136% dan 0,104% gacha va harakatchan shakldagi fosfor 19,0 mg/kg dan 8,0 mg/kg oraliqda, quyi qatlamlarda 0,100% dan 0,0714% gacha va harakatchan shakldagi 8,8 mg/kg dan 7,937 mg/kg gacha kamayishi kuzatilgan. Harakatchan shakldagi fosfor (P_2O_5) bilan – “juda past” ta'minlangan deb baholangan.

Tuproqlarda kaliyning umumiy miqdori haydalma qatlamda 0,49%-0,30% va almashuvchi shakldagisi 337,1 mg/kg dan 240,8 mg/kg oraliqda uchrashini kuzatilgan. Haydov osti qatlamda 0,60 %-0,24% va almashuvchi shakldagisi 276,9-158,9 mg/kg aniqlangan. Kaliy bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi bo'yicha “o'rtacha” ta'minlangan.

“O'tloqi-bo'z tuproqlarning singdirish sig'imi va singdirilgan kationlar miqdori” deb nomlangan paragrafida hudud tuproqlarining singdirish sig'imi 100 gramm tuproqda 7,61-10,7 mg/ekv. ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich tuproqlarning yuqori gorizontlarida 100 g tuproqqa 8-10,7 mg/ekv, pastki qatlamlarida 100 g tuproqqa 7,61 mg/ekv, dan 8,00 mg/ekv, ga tengligi aniqlangan.

Tajriba o'tkaziladigan o'loqi-bo'z tuproqlarning singdirish qobiliyati haydalma qatlamida Ca^{2+} miqdori 5,99-4,99 mg/ekv oraliqdaligi aniqlangan va pastki qatlamlarga tomon kamayib borishini kuzatilgan. Mg^{2+} kationi haydalma qatlamda 3,55 mg/ekv dan 2,76 mg/ekv ni oraliqda tebranib turishi aniqlangan. K^+

kationlari tuproqning haydalma qatlamlarida 0,61-0,36 oralig'ida va Na^+ -0,52-0,22 mg/ekv oraliqda kuzatildi.

O'tloqi-bo'z tuproqlarda singdirilgan kationlarning tarkibi o'rganilganda, sho'r yuvilmagan variantlarda magniy ulushi yuqoriligi aniqlangan. Natriy va kaliy kationlarining miqdori bo'z tuproqlarda 3-5% ni tashkil etib, natriy ulushi kaliydan yuqoriligi qayd etilgan. O'tloqi-bo'z tuproqlarda singdirilgan kationlar tarkibida natriy ulushi 5% dan past bo'lganligi uchun, bu tuproqlar sho'rtoblanmagan.


“Qo'llanilgan agrotexnologiyalar va agrotadbirlarni tuproqdagi oziq moddalar va zararli tuzlar miqdoriga ta'siri” deb nomlangan paragrafida tajriba maydonidagi tuproqning haydov qatlamida (0-30 sm) gumus miqdori 0,808 %, haydov osti qatlamida (30-50 sm) esa 0,682 % ni tashkil qilib, oziqa elementlari yetarli darajada emas. Azot va fosforning harakatchan shakli 7,5-19,9 mg/kg atrofida, ya'ni kam miqdorda, almashinuvchi kaliy esa o'rtacha darajada 310 mg/kg ni tashkil etdi. 10-18 variantlarda 2500-3000 m³/ga sho'r yuvish me'yori qo'llangandan so'ng, 0-50 sm qatlamda gumus 0,006 %, nitratli azot 2,3 mg/kg, fosfor 2,6 mg/kg va kaliy 17 mg/kg ga kamaydi. Bahordan kuzgacha oziqa moddalarining miqdori sezilarli pasaydi. Gumus miqdori 0,738-0,743 % atrofida tebranib turadi.

“O'tloqi-bo'z tuproqlarning asosiy fiziologik guruh mikroorganizmlarning miqdorini o'zgarishi” deb nomlangan paragrafida o'tloqi-bo'z tuproqlarda asosiy fiziologik guruh mikroorganizmlarning miqdori haqida ma'lumotlar taqdim etilgan. Soya ekilgan maydonlarda ammonifikator, oligonitrofillar va aktinomitsitlar miqdori eng yuqori darajada qayd etildi, loviya ekilgan maydonlarda esa bu ko'rsatkich biroz past, qand lavlagi ekilgan maydonida esa eng past darajada bo'ldi. Shu bilan birga, mulchalanmagan va sho'ri yuvilmagan tuproqlarga nisbatan mulchalanib, sho'ri yuvilgan tuproqlarda bu mikroorganizmlar miqdorining sezilarli darajada yuqoriligi kuzatildi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Qo'llanilgan resurstejkor agrotexnologiyasini tuproq xossa-xususiyatlariga ta'siri”** deb nomlanib unda resurstejkor agrotexnologiyalarini tuproqlarining xossa-xususiyatlariga ta'siriga oid ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar natijasida 0-5 sm va 0-10 sm qatlamdagi tuproq harorati 28,5°C va 27,6°C ni tashkil qildi. Qator oraliqlari plyonka bilan mulchalangan maydonlarda esa ushbu ko'rsatkichlar 33,2°C va 31,0°C darajada bo'ldi (3-rasm).

An'anaviy usulda yetishtirilgan soya dalalarida tuproq harorati 27,6-26,2°C darajada qayd etilgan. Soya qatorlari oralari plyonka bilan mulchalanib, maxsus parvarish qilinishi natijasida esa, bu harorat 31,7-30,2°C gacha ko'tarilgan. 1-avgustdagi kuzatuvlarda qand lavlagi an'anaviy usulda ekilganda tuproqning 0-5 sm chuqurlikdagi qatlamida harorat 24,3-22,2°C darajaga tushgani aniqlangan. Agar qand lavlagi qatorlari ham plyonka bilan mulchalanib o'stirilsa, tuproq harorati mos ravishda 25,7-23,2°C darajagacha ko'tarilgan.

Soya ekinlari uchun an'anaviy usulda yetishtirilgan maydonlarda suv iste'moli o'rtacha 30-35 m³/ga ni tashkil qilgan bo'lsa, qator oralarini plyonka bilan mulchlash orqali suv sarfini sezilarli darajada qisqartirishga erishilgan va bu ko'rsatkich 20-25 m³/ga gacha kamaygan.



3-rasm. Mulchalab sug'orish usulini tuproq harorati va sutkalik suv sarfiga ta'siri

“Resurstejamkor agrotexnologiyalar qo'llash ta'sirida tuproq strukturasi va mikroagregatlar tarkibining o'zgarishi” deb nomlangan paragrafida mulchalash va dukkakli ekinlarni yetishtirish tuproq strukturasi foydali ta'sir ko'rsatishi, bunda barqaror suvga chidamli agregatlarining ulushini oshishi va dispersiya ko'rsatkichining kamayishida namoyon bo'ldi. Resurstejamkor texnologiyalar qo'llanilgan 4, 5, 7, 8, 13, 14, 16, 17-variantlarda ancha barqaror tuproq tuzilishini namoyon qildi. Vegetatsiya boshida yirik agregatlar (>0,25 mm) mulchalangan variantlarda, ayniqsa dukkakli ekinlar ekilgan variantlarda ustunlik qildi. Vegetatsiya oxiriga kelib, bunday kombinatsiyalar tuproqning yuqori (0-15 sm va 15-30 sm) qatlamlarida yirik agregatlar saqlanishiga yordam berdi. Shuningdek, suv o'tkazuvchanlikni yaxshilaydigan mayda dispers zarrachalar (<0,001 mm) miqdori kamaygan (2-jadval).

Ma'lumotlarni taqqoslash shuni tasdiqladiki, agrotexnologiyalar qo'llanilmagan tuproqlar strukturasi yomonlashuviga ko'proq moyil bo'ladi. Masalan, mulchalanmagan va dukkakli ekinlar ekilgan variantlar eng ko'p degradatsiyani ko'rsatdi. Dukkakli o'simliklar bilan mulchalangan variantlar fizik xususiyatlarining maksimal yaxshilanishi, jumladan, yirik agregatlar ulushining ortishi va dispers koeffitsiyentning pasayishi kuzatildi.

Olingan natijalar resurs tejamkor texnologiyalarning samaradorligini isbotladi. Dukkakli o'simliklarni yetishtirish azotni o'zlashtirish va organik moddalarning ko'payishi tufayli tuproq strukturasi yaxshiladi. Mulchalash esa, o'z navbatida, namlikning bug'lanishini kamaytiradi, bu tuproq strukturalarining buzilmasdan saqlanishiga va tuproq mikroiklim holatini saqlashga yordam beradi. Ushbu texnologiyalardan birgalikda foydalanish tuproqning tashqi ta'sirlarga chidamliligini oshiradi. Mulchalashni dukkakli ekinlarni yetishtirish bilan birga qo'llash yuqori samaradorlikni ko'rsatdi, tuproq strukturasi saqlash, uning zichligini kamaytirish va suvga chidamli agregatlar sonini ko'paytirishga yordam

berdi. Ayniqsa, 5, 8, 14 va 17-variantlarda qoʻllanilgan usullar muvaffaqiyatli ekanligi qayd etildi.

Soya va loviya kabi dukkakli ekinlarning tuproq strukturasi ijobiy taʼsir koʻrsatishi aniqlandi. Ular suv oʻtkazuvchanligini oshirishga va suvga chidamli agregatlarning barqarorligi oshgan. Soya ekiladigan 13 va 14-variantlar, loviya ekiladigan 16 va 17-variantlar, ayniqsa shoʻrlangan tuproqlarni 2500-3000 m³/ga miqdorida yuvilganda eng samarali boʻldi. Disperslik koeffitsiyenti tahlili tuproqning gʻovakligi kamayib, strukturaviy yaxlitligi oshganligini koʻrsatdi. Hoʻl elashda ushbu variantlar barqaror agregatlarning eng katta oʻsishini va mayda dispers zarrachalar miqdorining eng kam darajaga tushishini namoyish etdi.

2-jadval

Agrotexnologiyalar taʼsirida ekinlarni yetishtirish jarayonida tuproq strukturasi oʻzgarishi (vegetatsiya davri oxirida 3 yillik oʻrtacha koʻrsatkich)

Variant	Qatlam chuqurligi, sm	Agregatlar oʻlchami, mm										Struktura koeffitsiyenti
		>10	10-7	7	5-3	3-2	2-1	1-0,5	0,5-0,25	<0,25	10-0,25	
4	0-15	44,4	7,2	6,3	8,0	7,2	9,6	2,0	3,1	12,2	43,4	0,77
	15-30	46,2	7,0	6,1	7,7	6,9	9,3	1,9	3,0	11,8	42,0	0,72
	30-50	43,5	7,1	6,3	7,9	7,1	9,5	1,9	3,1	13,5	42,9	0,75
5	0-15	40,1	7,4	6,5	8,2	7,3	9,8	2,0	3,2	15,6	44,3	0,80
	15-30	38,9	7,6	6,7	8,5	7,6	10,2	2,1	3,3	15,1	46,0	0,85
	30-50	39,3	7,4	6,5	8,2	7,3	9,8	2,0	3,2	16,4	44,3	0,80
6	0-15	42,9	7,5	6,6	8,3	7,5	10,1	2,0	3,3	11,8	45,3	0,83
	15-30	41,6	7,8	6,9	8,6	7,7	10,4	2,1	3,4	11,4	46,9	0,88
	30-50	42,0	7,5	6,6	8,3	7,4	10,0	2,0	3,2	13,0	45,0	0,82
13	0-17	36,2	9,0	7,9	10,0	9,0	12,1	2,4	3,9	9,4	54,4	1,19
	15-32	35,1	9,3	8,1	10,3	9,2	12,4	2,5	4,0	9,1	55,8	1,26
	30-52	35,5	8,9	7,8	9,8	8,8	11,9	2,4	3,8	11,1	53,4	1,15
14	0-17	32	10,0	8,8	11,0	9,9	13,3	2,7	4,3	8	60,0	1,50
	15-32	31,0	10,2	8,9	11,3	10,1	13,6	2,8	4,4	7,8	61,2	1,58
	30-52	31,4	10,1	8,8	11,1	10,0	13,4	2,7	4,4	8,1	60,6	1,54
15	0-18	32,7	9,6	8,5	10,7	9,6	12,9	2,6	4,2	9,4	57,9	1,38
	15-33	31,7	9,8	8,6	10,9	9,8	13,1	2,7	4,3	9,1	59,2	1,45
	30-53	32,0	9,6	8,5	10,7	9,6	12,9	2,6	4,2	9,9	58,1	1,39

Polietilen plyonka bilan mulchalash (2, 5, 8, 11, 14, 17-variantlar) ham oʻz samaradorligini tasdiqladi. Ushbu usul oʻlchami >0,25 mm boʻlgan suvga chidamli agregatlar sonining koʻpayishiga va <0,001 mm zarrachalar ulushining kamayishiga olib keldi. Quruq va hoʻl elashning qiyosiy tahlili shuni koʻrsatdiki, mulchalash tuproq yuvilishining oldini olishda, ayniqsa yuqori 15 santimetrli qatlamda samarali taʼsir koʻrsatadi. Yaxshilanishlar tuproqning suvga

chidamliligini oshirish va strukturasi mustahkamlashni o'z ichiga olgan bo'lib, bu usulni qishloq xo'jaligida qo'llash uchun istiqbolli ekanligini ko'rsatadi.


Mulchalash va sho'r yuvishni birlashtirgan 10-variant suvga chidamli agregatlar ulushining nazorat 1-variantiga nisbatan 5-10% ga oshishini ta'minladi. 11-variantda agregatlarning suvga chidamliligi 2-variantga nisbatan ho'l elashdan keyin 3-6% ga oshganligi kuzatildi. Tuproqlarning sho'ri yuvilgan va soya ekilgan 13-variantda 4-variantga nisbatan tuproqning strukturaviy xususiyatlarini 4-8% ga yaxshiladi. 14-variantdagi mulchalash tuproqning disperslik koeffitsiyentini pasaytirishga va tuproq strukturasi mustahkamlashga yordam berib, 5-variant natijalaridan ustun chiqdi. Loviyali 16-variant tuproq strukturasi barqarorligi va suvga chidamli agregatlar sonining 7-variantga nisbatan 6-9% ga oshishini ta'minladi. Yuvish va mulchalashni birlashtirgan 17-variant tuproq strukturasi yaxshilanishini, ayniqsa 0-15 va 15-30 sm qatlamlarda 8-variantga nisbatan yaqqol namoyon etdi.

